

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

BIOLOGIYA

D.R.Kapizova, I.I.Zokirov

Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili
(Sharqiy Farg'ona hududi misolida) 101

R.N.Mo'minova

Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari 106

С.Д.Дадаев, Д.А.Палуаниязова

О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого
рогатого скота Каракалпакстана 110

S.B.Orifov, F.R.Xolboyev

Hind chumchug'i- *Passer indicus* ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati 116

N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva

Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera) 121

M.A.Axmadjonova

Farg'ona vodiysida tarqalgan *Sitona* Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga
mansub turlarning bioekologik xususiyatlari 127

V.A.Karimov, M.Nazarov

Jadal texnologiyada arpa yetishtirish 133

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev

Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish 142

I.O.Sulaymonov

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlari 146

Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev

Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi 150

I.Aripov, R.Mariya

Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining
iqtisodiy baholanishi 154

A.U.Usmonov, A.K.Ergashev

Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari
(Vobkent tumani misolida) 161

O.N.Xakimov

Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi 166

O.N.Xakimov

Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasini tadqiq qilishdagi o'rni 178

ILMIY AXBOROT

Y.E.Altiboyev

Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili 190

A.A.Akramov

Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini
takomillashtirish modeli 195

M.J.Urinov

Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga
falsafiy tavsif 199

B.F.Abdishukurov

Markaziy Osiyodagi hududiy-chejaraviy muammolar
(1924-yildan keyingi voqealar xususida) 203

A.M.To'rayev

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish....207

Sh.M.Kadirov

Talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini
rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish 210



УО'К: 378.014.15

**TALABALarda TARIXIY VOQELIKKA NISBATAN ANALOGIK XULOSA CHIQARISH
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ У СТУДЕНТОВ
УМЕНИЙ ДЕЛАТЬ АНАЛОГИЧНЫЕ ВЫВОДЫ ПРИМЕНЯТЕЛЬНО К ИСТОРИЧЕСКОЙ
ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ**

**USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' SKILLS OF
ANALOGICAL CONCLUSIONS IN RELATION TO HISTORICAL REALITY**

Kadirov Shoxruxbek Musajon o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlanirishning nazariy-metodologik asoslari, talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlanirish metodikasi o'rganilgan. Shuningdek, talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlanirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье изучаются теоретико-методологические основы развития у студентов умений делать аналогичные выводы применительно к исторической действительности, методика формирования у студентов умений делать аналогичные выводы применительно к исторической действительности. Также анализируются использование педагогических технологий в развитии у студентов умений делать аналогичные выводы применительно к исторической действительности.

Abstract

In this article, theoretical-methodological foundations of students' development of analogical conclusion skills in relation to historical reality, methodology of students' development of analogical conclusion skills in relation to historical reality are studied. Also, the use of pedagogical technologies in the development of students' skills of making analogical conclusions in relation to historical reality was analyzed.

Kalit so'zlar: tarixiy vogelik, analogik xulosa, ko'nikma, pedagogik jarayon, kasbiy-pedagogik faoliyat, integrativ, korporativ, milliy, tarixiy, texnologik, kompetensiya, innovatsion model, texnologik tizim.

Ключевые слова: историческая реальность, аналогичный вывод, умение, педагогический процесс, профессионально-педагогическая деятельность, интегративный, корпоративный, национальный, исторический, технологический, компетентность, инновационная модель, технологическая система.

Key words: historical reality, analogical conclusion, skill, pedagogical process, professional-pedagogical activity, integrative, corporate, national, historical, technological, competence, innovative model, technological system.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lrim jarayonida pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar va interfaol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihat muhimki, oliv ta'lrim muassalarida ta'lrim olayotgan talabalarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlanirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarixiy vogelikka doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, tarixiy ong va xotirani rivojlanirish, tarixiy tafakkurni yuksaltirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari J.Anderson, D.Blazar,

ILMIY AXBOROT

S.A.Henry, K.Halbert, Helen Timperley, Aaron Wilson, Heather Barrar, L.N.Aleksashina, V.V.Barabanov, P.A.Baranov, L.S.Baxmutova, O.Y.Strelova, M.V.Korotkova, M.T.Studenikin, N.N.Lazukova, Y.M.Persanova, E.Yusupov, J.Tulenov, A.Begmatov, N.Jo'rayev, A.Choriyev, O.G'aybullayev, G.Tulenova, E.G'oziyev, V.Karimova, R.Sunnatova, N.Safayev, Z.Nishonova, B.X.Xodjayev, O.G'.Davlatov, A.F.Ismailov, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, S.Nishonova, U.Mahkamov, E.Turdiqulov, R.Safarova, B.Adizov, A.Choriyev, Sh.Mardonov, D.Ro'ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinovalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy sharoitda ta'lif jarayonining barcha imkoniyatlari ko'ra shaxsn rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy va tahliliy, ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Buning uchun yuksak malakali mutaxassislarining iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarining shakllantirishida mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rnatilishini ta'minlanishi kerak.

Talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbliji hozirgi kunda ancha yuqori bo'lib, u quyidagi jihatlar bilan izohlanadi.

Birinchidan, jahonda va mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, bugungi kunning siyosiy voqeligi hamda kundalik turmush ehtiyojlari jamoatchilikning tarixga bo'lgan qiziqishini pasaytirmadi, aksincha, o'tmishni yanada keskinroq idrok etishga olib keldi. Bu qonuniy jarayon, chunki yangi o'zgarishlar davri o'tmishni yuzaki o'rganish bilan cheklana olmaydi. U barcha davrlar hamda jarayonlarni har tomonlama chuqur anglashni talab qiladi. Chunki o'tganlarini xotiralamaydigan xalqning ertasi yorug' bo'lmaydi. Agar millat o'zining kelajagini porloq ko'rmoqchi bo'lsa, uning xotirasi uyg'oq bo'lmosi shart. Boisi, har qanday xalq va millat kechagi hayotidan, o'zi bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli kunlardan, tarix sinovlaridan zarur xulosa va saboqlar chiqarmog'i zarur. Shu bois "davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligidimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylandi.

Ikkinchidan, xalqlar hayotidagi burilish pallalari, urushlar va inqiloblar, iqtisodiy yuksalishdan depressiya va tanazzulga o'tish, jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar doimo tarixga qiziqishni kuchaytirgan. O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichi keyingi rivojlanish yo'llarini tanlash, demakki, bosib o'tilgan yo'lni baholashning ham, istiqbolga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqishning ham usullari, shakllari, tamoyillari bilan bog'liq masalalarni kun tartibiga qo'ydi. Bunday savollarning javobi har qanday jamiyatni har bir yangi avlod siyosida mavjud ahvolga olib keluvchi sabablarni qayta anglashga undaydi.

Uchinchidan, bugungi paytda o'tmishga qiziqish, undan hozirgi kun uchun javob topishga intilish hamda kelajakni oldindan ko'rish uchun rivojlanishning biron-bir yo'lini tanlash umumiyl tus olmoqda. Chunki o'tmish, bugun va kelajakni uzviy aloqadorlikda anglash to'g'ri ijtimoiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, hayotda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlar xalqning mentalitetini, uning tarixiy-analitik tafakkurini, bilim va ko'nikmalarini, tarixiy va milliy xususiyatlarini, an'analari hamda urf-odatlarini yanada to'liq hisobga olish, uning o'z o'tmishini, iste'dodli O'zbekiston xalqi tomonidan ko'p asrlik boy tarixi davomida to'plangan barcha go'zal narsalarni teran bilishidan kelib chiqadi.

Beshinchidan, buyuk ajdodlari merosidan xabardor bo'lish yosh avlodda nafaqat o'z tarixi bilan faxrlanish tuyg'usi, balki unga munosib bo'lish, undan o'rnak olish ma'suliyatini ham shakllantiradi. O'zbekistonda yoshlar kelajak vorislari sifatida katta ijtimoiy – demografik qatlamni tashkil etadi. Vatanimiz kelajagi ko'p jihatdan mana shu yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish masalalarining qanchalik samarali hal etilishiga bog'liq.

Talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda juda samrali bo'lgan 8 ta pedagogik talab mavjud. Ularga:

1. Talabaga informatsiyani kiritib qo'yish kerak bo'lgan obyekt (idish) sifatida emas, balki shaxs (subyekt) sifatida, ya'ni shakllangan, o'z fikr va mulohazalariga, e'tiqodi, qarashlari, intilishlari, irodasi, xarakteriga ega bo'lgan subyekt sifatida qarash. Mazkur talab o'qituvchi o'z qarashlarini talabaning o'zida mustaqil shakllanib bo'lgan dunyoqarashning o'rniga, uni yo'q deb

hisoblab yoki o'chirib tashlab emas, balki uning uchun qadrli bo'lgan qarashlar va ta'limotlar bilan muvofiqlashuvini nazarda tutib, unga payvand qilish tarzida ish yuritishini taqozo etadi.

2. Bu bor sharoitdan iloji boricha yaxshi foydalanishga harakat qilish talabidir.

3. Pedagogning talaba bilan baham ko'rmoqchi bo'lgan bilimlari uning o'ziga yaxshi tushunarli va ma'qul kelgan bo'lishi, bir so'z bilan aytganda uning o'zidan kelib chiqadigan bo'lishi zarur.

4. Pedagogning o'zi ham qandaydir yot informatsiyani talabaga uzatuvchi oddiy bir avtomat (radio, kompyuter, teleekran va h.k.) emas, balki o'zi o'tadigan dars mavzulari bo'yicha o'z fikr va qarashlariga ega bo'lgan, o'z g'oya va maqsadlarini mustaqil shakllantirish, ifodalay oladigan va analitik tafakkuri kuchli bo'lgan erkin va ijodkor shaxs bo'lishi talabidir.

5. Pedagogning talabalarga bermoqchi bo'lgan bilim va axboroti ko'pchilikni qiziqtiradigan, jalg etadigan ravishda tashkillanishi kerakligini bildiradi.

6. Pedagog o'z talabalariga dars jarayonida o'zi bilan erkin fikr almashinuv, muloqot qilish uchun imkoniyat yaratishini taqozo etadi. Ya'ni o'qituvchi o'z talabalarining o'ziga savollar bilan erkin murojaat qilishlari, kerak bo'lsa, o'z fikr va muloxazalarini bildirishlari uchun sharoit yaratishi va shunga rag'batlantirishi kerak.

7. Pedagog dars materiallarini talabalarning o'zlashtirishlari uchun tegishli obyektiv va subyektiv sharoitlari mavjudligini hisobga olgan holda tanlashi va tashkillashi maqsadga muvofiq.

8. Pedagog o'ziga talaba ko'zi bilan qaray bilishi, ular orqali o'z nuqsonlarini payqashdan qo'rmasligi va, kerak bo'lsa, o'zini o'zgartirishi joiz. Buning uchun u har bir talabani shaxs sifatida ko'ra olishi, ularning izzat nafsiga tegmaslikha harakat qilishi zarur.

Talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari quyidagilardan iborat: bo'lajak tarix o'qituvchilarining bilim olishiga kompleks yondashuv, ularda mutaxassislik fanlari bilan birga ijtimoiy-falsafiy bilimlarni shakllantirish, ta'lim jarayonini so'nggi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish; - bo'lajak tarix o'qituvchilarining analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradigan teran va tanqidiy fikrlaydigan, kreativ, obektiv pozitsiyada tura oladigan shaxs sifatida shakllantiruvchi ilmiy muhitni yaratish; - pedagogik jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida juda foydali bo'lgan mantiqiy fikrlash va bu asosida shakllanadigan analitik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion metodikasini joriy qilish; - bo'lajak tarix o'qituvchilarida jamoa bilan ishslash ko'nikmasini singdirish, davrga, ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik, muammoni o'rnida hal qila olish imkoniyatini shakllantirishga oid maxsus bilimlar berish, bu xususiyatlarni shakllantirish zarur;

- bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlashda ularda tarixga oid bilamlarni oshirish bilan birga tarixiy tafakkurni ham shakllantirish lozim;

- bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilimlardan cheklanib, amaliy "keys"lar bilan ishslash metodikasini ishlab chiqish. Shunday ekan, ta'limning bugungi vazifasi esa talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan ongli analitik fikrlash tarzi orqali oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Ma'lumki, inson ijtimoiy tabiatiga ko'ra o'z turmush tarzini o'zi yo'lga qo'yadi, o'zini o'zi boshqaradi. O'z xayollari, orzu-umidlari va maqsadlarini ro'yobga chiqarish jarayoni orqali mavhum holatlarni real voqelikka aylantira oladi, ularni manfaat orqali moddiylashtira oladi va foydalanadi. Yaxshilik va yomonlik, saxiylik va baxillik, ko'ngilchanlik va bemehrlik, muhabbat va nafrat uning butun ma'nnaviy-ruhiy qadriyatini belgilaydi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tarixni o'rganish jarayonida ana shu holatlarni boshdan kechiradi, o'zining yaxlit olamini vujudga keltiradi. Shuningdek, talabalar har qanday sharoitda ham tarixni anglashda uning tashkilotchisi va faol ishtirokchisi, boshqacha aytganda subyekti bo'lgan inson qobiliyatini, aql-zakosini, intellektual imkoniyatlarini va umuman olganda insoniy qadriyatlarini bilish, unga xolis baho berish uchun fikrga aylanayotgan qarashlar to'g'ri asoslangan negiz tufayligina shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosaga kelishlari lozim. Chunki inson tufayligina tarixiy jarayonlar haqiqiy ma'noda o'zining insonparvarlik mohiyatini, umuminsoniy qadriyatlarini to'liq namoyon etishi mumkin.

XULOSA

Ta'lim sifatiga zamonaviy yondashuvning tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak tarix o'qituvchilarini bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish, ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish samarali omillardan hisoblanadi. Ushbu holat bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faolligini oshiradi, informatsion-analitik kompetentligini rivojlanishiga asos yaratadi, bu esa talabalarni o'z kasb yo'nalishini tanlashlarida o'ta muhimdir.

Xulosa qilganda, talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga turli omillar ta'sir ko'rsatadi va ularni umumiyl holatda oliv ta'limda tizimlashtirish, bu jarayonga qaratilgan innovatsion pedagogik jarayonni yaratish zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Брюшинкин В.Н. Практический курс логики для гуманитариев. Учебное пособие. - М.: Новая школа, 1996. - 320 с.
2. Гетманова А.Д. Логика: учебник для педагогических учебных заведений. - М.: Новая школа, 1995. - С. 7.
3. Фозиев Э. Таълим жараёнида ўқувчилар тафаккурининг ўсиши. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 96 б.
4. Искендеров Ж.С. Педагогика коллежи ўқувчиларида характернинг интеллектуал ва иродавий хусусиятларини шакллантириш: Псих. фан. ном. ...дисс. – Т., 2009. –Б. 37.
5. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси. – Т.: Шарқ, 2002. –Б. 83-84.
6. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. –Б. 34.
7. Подгорецкая Н.А. Изучение приемов логического мышления у взрослых. - М.: Изд-во МГУ, 1980. - 150 с.
8. Поспелов Н.Н., Поспелов И.Н. Формирование мыслительных операций у старшеклассников. - М.: Педагогика, 1989. -152 с
9. Фалсафа фанини ўқитиш методикаси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2001. –Б. 78.
10. Рахимов Б.Х. Талаба-ёшларни илмий-тадқиқот ишларига йўналтиришнинг ижтимоий-педагогик асослари. Пед.ф.д.дисс.Т.: 2009. -Б. 90.